EOC
EUROASIAN ONLINE CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION

Google Scholar zenodo OpenAIRE doi digital object identifier

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference **«INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION»**. Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

Plavtning "Xumcha" komediyasida kulgi va ijtimoiy muhit

Soatova Aziza Sadriddin qizi
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi
azizasoatova011@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Rim dramaturgi Plavtning "Xumcha" komediyasida kulgi va ijtimoiy muhit masalalari tahlil qilinadi. Asarda Rim jamiyatining ijtimoiy hayoti, insonlarning boylikka munosabati hamda axloqiy qarashlari kulgili voqealar va obrazlar orqali yoritilgan. Tadqiqotda komediyaning asosiy qahramoni Evklion obrazi misolida ochko'zlik va xasislik kabi illatlarning mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, asardagi kulgi vositalari, ijtimoiy tanqid unsurlari hamda komediyaning badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. "Xumcha" komediyasining Rim adabiyoti va jahon dramaturgiyasi taraqqiyotidagi ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Plavt, "Xumcha", Rim adabiyoti, Rim komediyasi, kulgi, ijtimoiy muhit, Evklion, xasislik, ochko'zlik, satira, dramaturgiya, badiiy mahorat.

Annotation: This article analyzes the issues of humor and social environment in Plautus's comedy *The Pot of Gold* (*Aulularia*). The work reflects the social life of Roman society, people's attitudes toward wealth, and moral values through humorous situations and characters. The study examines the nature of greed and miserliness through the example of the main character, Euclio. In addition, the article discusses the comic devices, elements of social criticism, and artistic features of the comedy. The significance of *The Pot of Gold* in the development of Roman literature and world drama is also highlighted.

Keywords: Plautus, *The Pot of Gold*, Roman literature, Roman comedy, humor, social environment, Euclio, miserliness, greed, satire, drama, artistic master.

Qadimgi Rim adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Plavt (taxminan miloddan avvalgi 250–184-yillar) Rim komediyasining asoschisi va eng mashhur vakillaridan hisoblanadi. Uning to'liq ismi Tit Maktsiy Plavt bo'lib, u Italiyaning Umbriya viloyatida tavallud topgan. Plavtning hayoti haqida aniq ma'lumotlar ko'p saqlanib qolmagan bo'lsa-da, uning kambag'al oilada voyaga yetgani va yoshligida Rim shahriga kelib, teatr bilan bog'liq faoliyat yuritgani ma'lum. Dastlab u teatrda sahna ishchisi sifatida faoliyat boshlagan, keyinchalik esa aktyorlik bilan shug'ullangan. Teatr muhitida orttirgan tajribasi uning dramaturg sifatida shakllanishida muhim rol o'ynagan. Yunoniston bilan aloqalar natijasida yunon tilini o'rgangan Plavt qadimgi yunon komediyalarini lotin tiliga moslashtirish bilan shug'ullandi. Ayniqsa, yangi attika komediyasi vakillari Menandr, Filemon va Difil asarlari uning ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Plavt yunon komediyalarining syujetlarini to'liq takrorlash bilan cheklanib qolmagan. U ularni Rim tomoshabinlarining didi va ehtiyojlariga moslashtirib, voqealarni yanada jonli, kulgili va ta'sirchan shaklda qayta ishlagan. Dramaturg ko'pincha bir-biriga yaqin mazmundagi ikki asar syujetini birlashtirish usulidan foydalangan. Bu usul adabiyotshunoslikda kontaminatsiya deb ataladi. Natijada, uning komediyalarida voqealar rivoji tez, qiziqarli va kutilmagan burilishlarga boy bo'lgan. Qadim zamonlarda 130 ga yaqin komediyani Plavt nomi bilan bog'lashgan. Ammo miloddan avvalgi I asrda Rim olimi Varron shulardan faqat yigirma bittasini Plavt yozganligini aniqlaydi.[21]

[21] Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti: Darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – 56.

Bugungi kunda ham ushbu asarlar Rim dramaturgiyasining eng qimmatli namunalaridan biri sifatida baholanadi. Plavtning “Maqtanchoq jangchi”, “Psevdol” va “Xumcha” kabi komediyalari ayniqsa mashhurdir.

Plavt ijodining asosiy xususiyati xalqchillik, jonli til, kulgili vaziyatlar va yorqin xarakterlar yaratish mahoratida namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida qullar, savdogarlar, boylar va kambag‘allar kabi turli ijtimoiy qatlam vakillari tasvirlanadi. Shu bilan birga, faqatgina Rim idora tartiblariga, Rim sud tuzumi, Rim madaniyati va, umuman, Rim hayotining turli-tuman sohalariga xos milliy holat va alomatlarni ham original ruhiga singdirib yuborish — Plavt ijodining asosiy xususiyatidir.[22] Plavt miloddan avvalgi III–II asrlarda, Rim Respublikasining yuksalish davrida yashagan. Bu davr Rim davlatining siyosiy va harbiy jihatdan kuchayib, O‘rta yer dengizi hududida o‘z mavqeini mustahkamlayotgan davri edi. Rimning hududiy kengayishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti rivojlandi, savdo-sotiq kuchaydi va jamiyat hayotida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Biroq iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda jamiyatda boy va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut ham ortib bordi. Boylik va mulkka intilish kuchaydi, ayrim kishilar uchun moddiy manfaat ma’naviy qadriyatlardan ustun bo‘lib qoldi. Aynan shunday ijtimoiy muhit Plavt komediyalarida kulgi va satira vositasida o‘z aksini topgan. Dramaturg insonlarning ochko‘zligi, xasisligi, yolg‘onchiligi va maqtanchoqligi kabi illatlarni kulgili vaziyatlar orqali fosh etishga intilgan. Bu davrda Rim madaniyatiga yunon madaniyatining ta’siri ham nihoyatda kuchli edi. Rimliklar yunon adabiyoti, falsafasi va san’atidan faol ravishda foydalanar edilar. Teatr san’ati ham aynan yunon an’analari asosida rivojlandi. Biroq rimlik dramaturglar, jumladan Plavt, yunon namunalarini o‘z xalqining urf-odatlari va dunyoqarashiga moslashtirishga muvaffaq bo‘ldilar. Teatr Rim xalqining sevimli tomoshalaridan biri hisoblangan. Teatr tomoshalariga jamiyatning turli qatlamlari vakillari tashrif buyurishgan. Shu sababli dramaturglar asarlarini keng omma tushunadigan sodda va ta’sirchan tilda yozishga harakat qilganlar. Plavt ham o‘z komediyalarida xalqona iboralar, hazil-mutoyibalar va jonli dialoglardan keng foydalangan. Bu esa uning asarlarining uzoq vaqt davomida mashhur bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan. Plavt yashagan davr Rim tarixida muhim o‘zgarishlar yuz bergan, ijtimoiy va madaniy hayot jadal rivojlangan davr hisoblanadi. Dramaturg ana shu muhitning muhim jihatlarini o‘z komediyalarida aks ettirib, Rim adabiyoti va teatr san’ati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan.

Plavtning “Xumcha” komediyasi qadimgi Rim komediyasining eng mukammal namunalaridan biri hisoblanadi. Asarning asosiy badiiy xususiyatlaridan biri unda kulgi vositalarining nihoyatda mahorat bilan qo‘llanganligidir. Dramaturg kulgidan tomoshabinni shunchaki xursand qilish vositasi sifatida emas, balki inson tabiatidagi nuqsonlarni ochib beruvchi va jamiyatdagi ayrim salbiy holatlarni tanqid qiluvchi vosita sifatida foydalanadi. Shu sababli komediyadagi kulgi satirik xarakter kasb etadi. Asarda kulgining asosiy manbai Evklion obrazidir. Tasodifan katta boylikka ega bo‘lgan qahramon oltinni yo‘qotib qo‘yish qo‘rquvi tufayli doimiy shubha va xavotir ichida yashaydi. U atrofidagi barcha odamlarni o‘g‘ri deb hisoblaydi, har bir voqea va suhbatni o‘z boyligi bilan bog‘laydi. Natijada, uning harakatlari kulgili vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Evklionning xumchani bir joydan ikkinchi joyga yashirishi, uni hech kim topib

[22] Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – B. 279.

olmasligi uchun tinimsiz tashvishlanishi, hatto o‘z qo‘shnilaridan ham shubhalanishi satiric kulgining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Komediyadagi kulgining asosiy manbai voqealar rivojida namoyon bo‘ladigan dramatik ironiya hisoblanadi. Evklion va Likonid o‘rtasidagi suhbat Plavt dramatik ironiyasining klassik namunasidir. Dramatik ironiya voqea qahramonlari bilmagan haqiqatni tomoshabin bilishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, Megador qizga sovchi bo‘lib kelganida Evklion uni oltinni bilib qolgan va shu sababli qiziga uylanmoqchi deb o‘ylaydi. Aslida esa Megadorning boylik haqida hech qanday xabari yo’q edi. Tomoshabin bu haqiqatni bilgani uchun Evklionning har bir shubhali munosabati ularda kulgili taassurot uyg‘otishiga sabab bo’ladi. Asardagi yana bir muhim kulgi manbayi tushunmovchiliklar bilan bog‘liq vaziyatlardir. Ayniqsa, Evklion bilan Likonid o‘rtasidagi suhbat bunga yorqin misol bo‘la oladi. Evklion o‘g‘irlangan oltini haqida qayg‘urayotgan bo‘lsa, Likonid uning qizi Fedra haqida gapiryapti deb o‘ylaydi. Ikki qahramon bir-birini tushunmasdan suhbatlashadi va natijada juda qiziqarli komik holat yuzaga keladi. Bunday usul komediya syujetining jonli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Plavt kulgi yaratishda dialoglardan ham mohirona foydalanadi. Qahramonlarning o‘zaro bahs-munozaralari, xizmatkorlarning hazillari, turli vaziyatlarga berilgan kutilmagan javoblar asarning badiiy jozibasini oshiradi. Ayniqsa, Stafila va boshqa ikkinchi darajali personajlarning nutqi orqali Evklionning xasisligi yanada bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Shu orqali dramaturg kulgining satirik kuchini oshiradi. “Xumcha” komediyasidagi satira markazida xasislik illati turadi. Plavt insonning boylikka haddan tashqari berilishi uni ma’naviy qashshoqlikka olib kelishini ko‘rsatadi. Evklion boylik topgach baxtli bo‘lish o‘rniga yanada bezovta va qo‘rqoq odamga aylanadi. U o‘z yaqinlariga ham ishonmay qo‘yadi. Shu tariqa dramaturg xasislik inson ruhiyatini izdan chiqaruvchi salbiy illat ekanligini kulgi vositasida ochib beradi.

“Xumcha” komediyasining markaziy qahramoni Evklion obrazi orqali Plavt o‘z davri jamiyatining muhim ijtimoiy muammolarini yoritib beradi. Ushbu obraz nafaqat individual xarakter sifatida, balki Rim jamiyatida keng tarqalgan ayrim ijtimoiy illatlarning umumlashgan timsoli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Evklion dastlab oddiy va kambag‘al inson sifatida tasvirlanadi. Biroq tasodifan qo‘lga kiritilgan boylik uning butun hayotini o‘zgartirib yuboradi. Oltin xumcha qahramon uchun boylik manbai bo‘lish bilan birga, uning ruhiy iztiroblarining sababiga ham aylanadi. U doim xavotirlanib, boshqalardan shubhalanib yashay boshlaydi. Plavt esa uning bu holatini yuksak mahorat bilan tasvirlaydi:

Bu kampirdan razilroqni men butun umr
Ko'rmaganman! Rosti, undan juda qo'rqaman:
Nogoh kelib suqulganin men bilmay qolsam,
Oltin qayga berkitilgan iskaydi burni!
Yalmog'izning har tomonda ko'zi bo'ladi,
Borib qaray,yashirilgan joydami oltin?
Uh, u qancha tashvish, vahm soldi boshimga![23]

Shu jihatdan Evklion obrazi orqali insonning moddiy manfaatlarga haddan tashqari bog‘lanib qolishi tanqid qilinadi. Asarda Rim jamiyatida boylikning tutgan o‘rni ham yaqqol ko‘rsatiladi. Evklionning barcha fikri va harakati oltinni saqlab qolishga

[23] Plavt. Xumcha (Ko‘milgan xazina) / tarjimon noma'lum. – Nashr yili va joyi noma'lum. – B. 11.

qaratilgan. U qizining taqdiri, qo‘shnilari bilan munosabati va kundalik hayotidagi boshqa masalalarga ham boylik nuqtai nazaridan yondashadi. Bu holat Rim jamiyatida mulk va boylikning insonlar ongiga qanchalik kuchli ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Evklion obrazi orqali oilaviy munosabatlar masalasi ham ochib beriladi. Uning qizi Fedra o‘z taqdiri haqida mustaqil qaror qabul qila olmaydi. Qizning kelajagi otasining xohishiga bog‘liq holda hal etiladi. Bu holat qadimgi Rim jamiyatida ayollarning ijtimoiy mavqei cheklanganligini ko‘rsatadi. Fedra sahnada deyarli ko‘rinmasa-da, uning taqdiri voqealar rivojining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Komediyada qullar mavqei ham aks ettirilgan. Stafila va boshqa xizmatkorlar voqealar rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, xizmatkorlarning aqlli, tadbirkor va vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan insonlar sifatida tasvirlanishi Rim jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda qullar o‘z xo‘jayinlariga qaraganda dono va uzoqni ko‘ra oladigan shaxslar sifatida namoyon bo‘ladilar. Bunga Strobil obrazi yorqin misol bo‘la oladi. Evklion xumcha oltinni yashirish maqsadida uni bir necha bor joyidan ko‘chiradi, biroq qul uning harakatlarini kuzatib boradi va xumchaning yashirilgan joyini aniqlaydi. Natijada, u oltinni o‘g‘irlashga muvaffaq bo‘ladi. Ushbu voqea bir tomondan komik vaziyatni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan qullarning topqirligi va tadbirkorligini namoyon etadi. Shu tariqa Plavt qullarni faqat bo‘ysunuvchi tabaqa vakillari sifatida emas, balki voqealar rivojiga faol ta’sir ko‘rsata oladigan shaxslar sifatida tasvirlaydi. Shuningdek, Evklion obrazi orqali Rim jamiyatida mavjud bo‘lgan iqtisodiy tabaqalanish muammosi ham bilvosita aks ettiriladi. Boylik insonning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lib qolgan davrda Evklionning xatti-harakatlari o‘sha muhitning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Dramaturg bu obraz orqali tomoshabinni boylikning haqiqiy qiymati va inson hayotidagi o‘rni haqida mushohada yuritishga undaydi.

“Xumcha” komediyasining badiiy qimmati, avvalo, unda yaratilgan obrazlar tizimining hayotiyligi va xarakterlarning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Plavt asarda qadimgi komediya uchun xos bo‘lgan an’anaviy tipik qahramonlardan foydalangan bo‘lsa-da, ularni oddiy obrazlar darajasida qoldirmaydi. Har bir personaj voqealar rivojida muhim o‘rin egallaydi va asarning g‘oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiladi. Asarning markaziy qahramoni Evklion hisoblanadi. U qadimgi komediyalarda keng uchraydigan “xasis qariya” tipining yorqin namunasidir. Biroq Plavt ushbu obrazni faqat kulgi manbai sifatida emas, balki inson ruhiyatining murakkab jihatlarini ochib beruvchi xarakter sifatida yaratgan. Evklionning oltin xumchaga haddan tashqari bog‘lanib qolishi, doimiy qo‘rquv va shubha ichida yashashi uning xarakterini ochib beruvchi asosiy omillardir. Dramaturg qahramonning xatti-harakatlari orqali boylikka mukkasidan ketish insonni ma’naviy qashshoqlikka olib kelishini ko‘rsatadi. Megador obrazi ham asarda muhim o‘rin tutadi. U jamiyatda hurmat qozongan, moddiy jihatdan ta’minlangan inson sifatida tasvirlanadi. Dastlab Fedraga uylanish istagini bildirgan Megador komediyadagi “keksa bo‘ydoq” tipini ifodalaydi. Biroq u salbiy qahramon sifatida emas, aksincha, saxiy va oqilona fikrlaydigan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, sep masalasiga bildirgan munosabati uning xarakterini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Megadorning qiz uchun sep talab qilmasligi asardagi ijtimoiy g‘oyalarning ifodalanishiga xizmat qiladi. Likonid komediyada ideal qahramon sifatida emas, balki o‘ziga xos kamchiliklarga ega inson sifatida tasvirlanadi. Uning Fedra bilan nikohsiz munosabatda bo‘lishi qahramon xarakteridagi mas'uliyatsizlikni ko‘rsatsa, keyinchalik qizga uylanishga qaror qilishi va aybini tan olishi uning ijobiy jihatlarini namoyon etadi. Shu

sababli Likonid obrazi murakkab va hayotiy xarakterlardan biri hisoblanadi. Ayol obrazlari orasida Fedra va Stafila alohida ahamiyatga ega. Fedra asarda deyarli sahnada ko‘rinmasa ham, voqealar rivojining markazida turadi. Uning taqdiri bilan bog‘liq voqealar syujetning muhim qismini tashkil etadi. Fedra obrazi orqali qadimgi Rim jamiyatida ayollarning mustaqilligi cheklanganligi, ularning hayoti ko‘pincha erkaklar qaroriga bog‘liq bo‘lganligi aks ettiriladi. Stafila esa Evklionning xizmatkori sifatida tasvirlangan bo‘lib, asardagi eng samimiy va hayotiy obrazlardan biridir. U xo‘jayinining xasisligi va g‘alati xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi. Shu bilan birga, Fedraning holatiga befarq bo‘lmaydi va unga nisbatan mehribonlik ko‘rsatadi. Bu jihatlar Stafilaning oddiy xizmatkor emas, balki insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan obraz ekanligini ko‘rsatadi. Komediyaning yana bir muhim badiiy xususiyati unda mifologik elementlarning qo‘llanilishidir. Uy xudosi Larning prologdagi ishtiroki voqealarning sabablarini tushuntirib beradi va tomoshabinni asar mazmuniga tayyorlaydi. Bu usul qadimgi dramaturgiyada keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, Plavt uni syujet bilan muvaffaqiyatli bog‘lay olgan.

Asarning yakuni ham dramaturgik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Evklionning oltindan voz kechishi va uni qizining baxti uchun berishga rozi bo‘lishi komediyaning g‘oyaviy yechimini tashkil etadi va Evklion, aslida, asarda u qadar salbiy obraz emasligini ko’rsatadi. Agar u chindan ham ziqna bo‘lganida hech qachon o‘z davlatini ikki qo‘llab kuyoviga tutmas edi. Uning “xasis”ligi bir umr yirikroq pul ushlamagan kambag‘alning bexosdan qo‘lga kiritilgan kattakon davlat qarshisida sarosimalanib qolishdan boshqa narsa emas.[24] Shu orqali asar boshidan ilgari surilgan axloqiy fikr o‘z tasdig‘ini topadi. Boylik insonni baxtli qilmaydi, haqiqiy baxt esa insoniy munosabatlar va oilaviy qadriyatlarda mujassam degan g‘oya yakuniy xulosaga aylanadi. “Xumcha” komediyasi nafaqat Rim dramaturgiyasi, balki jahon komediya san’ati tarixida ham muhim o‘rin egallaydi. Asarda yaratilgan xasis qariya obrazi keyingi asrlarda ko‘plab dramaturglar ijodiga ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, Yevropa adabiyotida uchraydigan xasis qahramonlar timsolida Plavt yaratgan Evklion obrazining ta’siri seziladi. Shu jihatdan “Xumcha” komediyasi komediya janrining taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Xulosa qilib aytganda, asarning badiiy mahorati syujetning puxtaligi, xarakterlarning hayotiyligi, kulgi vositalarining mahorat bilan qo‘llanilishi va chuqur ijtimoiy mazmun bilan uyg‘unlashganligida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihatlar “Xumcha” komediyasining asrlar davomida o‘z qimmatini saqlab qolishiga va jahon dramaturgiyasi tarixida munosib o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamdamov Ulug‘bek, Qosimov Abdug‘opir. Jahon adabiyoti (Darslik). – Toshkent: “Akademnashr”, 2024. – b.320
2. Hamdamov Ulug‘bek, Qosimov Abdug‘opir. Jahon adabiyoti (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2017. – b.352
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
4. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – b.416
5. Qosimov Abdug‘opir, Xo‘jayev Sidiq. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2016. – b.234
6. The Pot of Gold by Plautus. – All About Literature, 2025. – URL: https://allaboutliteraturenetin.wordpress.com/2025/05/08/the-pot-of-gold-by-plautus/
7. Plautus’ Aulularia (“The Pot of Gold”) – 2009 // St. Olaf College. URL: https://wp.stolaf.edu/classics/st-olaf-ancient-plays/aulularia/

[24] Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – B. 283